

3. Указ Президента Республики Узбекистан, от 30.01.2025 г. № УП-16 «О Государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан — 2030» в «Год охраны окружающей среды и «зеленой экономики»».

4. Постановление Президента Республики Узбекистан, от 04.10.2019 г. № ПП-4477 Об утверждении Стратегии по переходу Республики Узбекистан на «зеленую» экономику на период 2019 — 2030 годов.

5. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 25 октября 2023 года № 561 «О мерах по внедрению национальной таксономии «зеленой» экономики.

SOLIQ QARZDORLIGINI KAMAYTIRISHDA AHOLINING MOLYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHNING SAMARADORLIGI

Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Soliq siyosati va moliyaviy barqarorlikni samarali amalga oshirilishi davlat boshqaruvida muhim ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Budget tushumlarining yetarli darajada ta'minlanishi, shuningdek, iqtisodiy barqarorlikni saqlash va davlat xizmatlarining sifatini oshirish soliq to'lovchilarning majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarishiga bevosita bog'liqdir. Shu bilan birga, soliq qarzdorligining yuqori darajasi ko'plab mamlakatlar, xususan O'zbekiston Respublikasida ham jiddiy iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Soliq qarzdorligi nafaqat davlat budjetining moliyaviy manbalarini qisqartiradi, balki iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini pasaytiradi, investitsiya muhitini zaiflashtiradi va soliq ma'muriyati faoliyatining samaradorligini kamaytiradi.

Ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, soliq qarzdorligining asosiy sabablaridan biri – bu aholining moliyaviy savodxonligining yetarli darajada rivojlanmaganligi, shu jumladan soliq to'g'risidagi qonunchiliklarni yaxshi bilmasligidir. Davlatimiz rahbari bu borasida "...Agar tadbirkor yangicha soliq hisobotini, o'zgarishlarni bilmasa, unga jazo berish kerak emas, to'g'ri yo'lni o'rgatish, ishontirish kerak." – deya ta'kidlagan.²⁵

Moliyaviy savodxonlik konsepsiyasi shaxsning moliyaviy resurslarni boshqarish, soliq va budjet majburiyatlarini tushunish hamda o'z vaqtida bajarish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish nafaqat shaxsning moliyaviy xabardorligini rivojlantiradi, balki davlat daromadlarini barqarorlashtirish va soliq qarzdorligini kamaytirishning samarali instrumenti sifatida ham xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqotning dolzarbligi aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali soliq qarzdorligini

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 16-martda Soliq qo'mitasida o'tkazgan yig'ilishdagi nutqi. <https://president.uz/uz>

kamaytirishning samaradorligini ilmiy asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zaruratida namoyon bo'ladi.

Ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borgan ayrim xorijiy iqtisodchi olimlar, xususan A. Lusardi "Moliyaviy savodxonlikni shaxsning moliyaviy majburiyatlarni anglash va ularga rioya qilish qobiliyati sifatida baholab, moliyaviy savodxonlik past bo'lgan shaxslarda soliq majburiyatlarini buzish va qarzdorlikka tushish ehtimoli yuqori ekanligini asoslaydi." – degan fikrni ilgari surgan.²⁶

M. Richard esa "Soliq qarzdorligiga qarshi kurashda faqat jazolash mexanizmlari yetarli emasligini, balki soliq to'lovchilarning bilim va xabardorligini oshirish hal qiluvchi ahamiyatga ega" – ekanligini ta'kidlaydi.²⁷ [3]

J. Almning tadqiqotiga ko'ra, soliq tizimini tushungan soliq to'lovchi majburiyatlarni ixtiyoriy ravishda bajaradi, bu esa soliq qarzdorligining kamayishiga olib keladi.²⁸

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, soliq qarzdorligi muammosi davlat budjeti barqarorligini ta'minlashda muhim to'siqlardan biri bo'lib, uning shakllanishida iqtisodiy omillar bilan bir qatorda institutsional va ijtimoiy omillar, xususan aholining moliyaviy savodxonligi darajasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy savodxonlik past bo'lgan sharoitda soliq majburiyatlarini to'liq anglamaslik, soliqlarni hisoblash va to'lash tartibidagi xatolar soliq qarzdorligining barqaror shakllanishiga olib keladi.

Xalqaro tajriba ham mazkur yondashuvni tasdiqlaydi ya'ni Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda soliq intizomi nisbatan mustahkam ekani, soliq qarzdorligi esa past darajada shakllanishi aniqlangan. Aksincha, aholining moliyaviy va soliq bilimlari yetarli bo'lmagan hududlarda soliq qarzdorligi barqaror muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu holat moliyaviy savodxonlikni oshirishni byudjet-soliq tizimini oqilona boshqarishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi.²⁹

Iqtisodchi olimlarning nazariy qarashlari va xalqaro amaliy tajriba natijalari shuni tasdiqlaydiki, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish soliq intizomini mustahkamlash va soliq qarzdorligini kamaytirishning samarali vositasi hisoblanadi. Moliyaviy savodxon shaxs soliq majburiyatlarini majburiy yuklama sifatida emas, balki davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyat sifatida qabul qiladi, bu esa soliqlarni ixtiyoriy va o'z vaqtida to'lashga bo'lgan intilishni kuchaytiradi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan soliq islohotlari doirasida soliq organlarining "jazolovchi" emas, balki "ko'makchi" tamoyiliga asoslangan

²⁶ Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). The economic importance of financial literacy: Theory and evidence. *Journal of Economic Literature*, 52(1), 5–44.

²⁷ Bird, R. M. (2015). Improving tax administration in developing countries. *Journal of Tax Administration*, 1(1), 23–45.

²⁸ Alm, J. (2019). What motivates tax compliance? *Journal of Economic Surveys*, 33(2), 353–388.

²⁹ OECD. (2020). OECD/INFE international survey of adult financial literacy competencies. Paris: OECD Publishing. <https://www.oecd.org/en/networks/infe.html>

faoliyati aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'lmogda. Ushbu yondashuv soliq qarzdorligini ma'muriy usullar bilan emas, balki oldini olish va tushuntirish orqali kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, soliq qarzdorligini kamaytirishda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish budjet-soliq tizimini oqilona boshqarishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u davlat budjeti tushumlarining barqarorligini ta'minlash, soliq ma'muriyati samaradorligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois, moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni soliq siyosatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 16-martda Soliq qo'mitasida o'tkazgan yig'ilishdagi nutqi. <https://president.uz/uz>.

2. Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). *The economic importance of financial literacy: Theory and evidence. Journal of Economic Literature*, 52(1), 5–44.

3. Bird, R. M. (2015). *Improving tax administration in developing countries. Journal of Tax Administration*, 1(1), 23–45.

4. Alm, J. (2019). *What motivates tax compliance? Journal of Economic Surveys*, 33(2), 353–388.

5. OECD. (2020). *OECD/INFE international survey of adult financial literacy competencies*. Paris: OECD Publishing. <https://www.oecd.org/en/networks/infe.html>.

KICHIK SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISHNI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARINI SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH

Amirov Zubaydulla Toir o'g'li

*Toshkent arxitektura qurilish universiteti "Iqtisodiyot va ko'chmas mulk"
kafedrasi katta o'qituvchisi*

Annatsiya: Kichik sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlari samaradorlik ko'rsatkichlari asosida baholanadi. Tadqiqotda fond qaytimi, investitsiya mahsuldorligi, mehnat unumdorligi, kapital bilan ta'minlanganlik, tannarx nisbati va resurs sig'imi tahlil qilinadi. 2020-2024 yillar ma'lumotlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi asosan mavjud resurslardan foydalanish samaradorligining oshishi hisobiga ta'minlanayotganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kichik sanoat korxonalarida, ishlab chiqarishni kengaytirish, samaradorlik ko'rsatkichlari, fond qaytimi, mehnat unumdorligi, resurs sig'imi.